
**BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHISINI KASBIY TAYYORLASHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH XUSUSIDA**

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini shakllantirish va rivojlantirish borasida, kasbiy tayyorgarlikda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: ta'lim, axborot-texnologiya, raqamli texnologiya, kompetensiya, ko'rgazmalilik.

**О ПРИМЕНЕНИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ
ПОДГОТОВКЕ УЧИТЕЛЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ**

Аннотация. В статье рассматривается вопрос о формировании и развитии профессиональной подготовки будущих учителей начальных классов, о значении использования современных технологий в профессиональной подготовке.

Ключевые слова: образование, информационные технологии, цифровые технологии, компетентность, наглядность.

**ABOUT THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN PROFESSIONAL TRAINING
OF A PRIMARY SCHOOL TEACHER**

Annotation. The article reflects on the importance of the use of modern technologies in professional training in terms of the formation and development of professional training of future primary school teachers.

Keywords: education, information technology, digital technology, competence, exhibitionism.

Kirish. "Ta'lim to'g'risida"gi qonunda ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega bo'lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. XXI asr axborot-texnologiyalari asri bo'lganligi sababli, bugungi kunda barcha sohalarning faoliyati deyarli raqamli texnologiyalar asosida ish olib bormoqda. Shu jumladan, ta'lim tizimi ham. Bugungi kunda har bir bo'lajak o'qituvchi o'z ixtisosligidan o'quv-tarbiyaviy faoliyatni samarali olib borish uchun lozim bo'lgan metodik, pedagogik bilim va ko'nikmalarni, axborot-texnologiyalari va raqamli texnologiyalarni qo'llash nazaryasi va metodikasini, o'qituvchiga xos kasbiy fazilatlarni egallashi lozim.

Asosiy qism. Globallasuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri-ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini tatbiq qilish. Vatanimiz bugungi kunda rivojlan mamlakatlar safidan o'rin olishga harakat qilmoqda. Rivojlangan davlatlar qatori O'zbekiston ham raqamli davrga o'tmoqda. Ta'lim jarayonlari ham raqamlashtirib borilmoqda. Hozirgi kunda hayotimizning ajralmas qismiga aylanib borayotgan kompyuter, smartfon, noutbuk, planshetlar va boshqalar. Biz bu gajetlar orqali axborotlar bilan tanishamiz, turli bilimlarga ega bo'lamiz, do'stlar orttiramiz, suhbatlashamiz, videolar tamosha qilamiz, tassurotlarimiz bilan bo'lishamiz, fotosuratlar jo'natamiz yoki qabul qilib olamiz va boshqa bir qancha jarayonlarni amalga oshiramiz. Menimcha, ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy qilish bugungi kunning zamonaviy ko'rgazmalilik usuli desak ham bo'ladi. Ta'limda ko'rgazmalilik o'quvchilarning bilim faoliyatida obrazli va mantiqiy, aniq va mavhum, hissiy va aqliy jihatlar nisbatini chuqur tushunishni talab etadi. Ko'rgazmalilik asosan turli hil vositalar yordamida

amalga oshiriladi. Masalan, plakatlar, tarqatma materiallar, rasmlar, sxemalar, o'qit ekskursiyalar va boshqalar kiradi.

O'qitishning ko'rgazmali usullarini qo'llash Y.A.Komenskiyning "Buyuk didaktika" asaridayoq o'z asosini topgan. "O'quvchilar sezib, idrok etishi mumkin bo'lgan narsalarni, albatta, sezgilar vositasi bilan, ko'rish mumkin bo'lgan narsalarni ko'z bilan ko'rib, eshitish mumkin bo'lgan narsalarni quloq bilan eshitib, hidi bor narsalarni tatib ko'rib, ushlab sezish mumkin bo'lgan narsalarni ushlab ko'ribgina bilib olishlari kerak",- deb yozgan edi u. Haqiqatdan ham yillar davomida o'quvchilarning samarali o'zlashtirishida ko'rgazmalilikning ahamiyati katta.

Bugungi kunda zamonaviy ta'limda o'z kasbiy faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, yaxshi shakllangan axborot-kommunikatsiya kompetensiyasiga (AKM) ega bo'lgan o'qituvchilarga muhtoj. Shu boisdan ham jamiyatimizning talabini inobatga olgan holda, Oliy ta'lim muassasalarida taxsil olayotgan talabalar pedagogik mahoratga ega bo'lgan, bilimli va ayni paytda axborot-texnologiyalaridan samarali foydalana oladigan raqamli texnologiyalardan foydalana oladigan, erkin va tanqidiy fikrlay oladigan, intiluvchan, ijodkor(kreativ), jahon talablariga javob bera oladigan kadrlarni yetishtira boshladi.

Bo'lg'usi pedagog kadrlarni tayyorlashda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish katta ahamiyatga ega. Kompetensiya nima? Kompetensiya - lotincha so'z bo'lib, o'zbek tilida "munosib", "to'g'ri keladi" yoki "mos keladi" ma'nolarini anglatadi. O'z bilim, mahorat va amaliy tajribalarni qo'llagan holda oddiy va murakkab masalalarni yecha olishga munosib inson deb tushunsa bo'ladi. Ko'p hollarda "kasbiy kompetentlik" atamasi qo'llaniladi. Bu so'zni kasbiy vazifalarini amalga oshirishda o'z amaliy tajribalari, bilim va ko'nikmalarini muvaffaqiyatli qo'llay olish qobiliyati deb tushunsa bo'ladi.

Pedagogning kasbiy kompetensiya turlari:

1. Kasbiy kompetensiya.
2. Shaxsiy kompetensiya.
3. Umuminsoniy kompetensiya.
4. Madaniy kompetensiya.
5. Maxsus kompetensiya.

Kasbiy kompetensiyaga ega mutaxassis quyidagicha:

- 1) o'z bilimlarini izchil boyitib boradi;
- 2) yangi axborotlarni o'zlashtiradi;
- 3) davr talablarini chuqur anglaydi;
- 4) yangi bilimlarni izlab topadi;
- 5) ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida qo'llaydi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining raqamli texnologiyalardan foydalana bilishi kasbiy kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi, u boshlang'ich maktabning o'ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, AKTning o'ziga xosligi va tabiatini hisobga olgan holda, kasbiy muammolarni hal qilishda AKTdan foydalanish imkonini beruvchi kompetensiyalar majmuasidan iborat va boshlang'ich maktabda qo'llaniladi. Zamonaviy axborot texnologiyalari ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning hozirgi talablariga eng mos keladigan ta'lim faoliyati uchun pedagogik muhitni yaratish hamda mavjud usullar va vositalarni mukammallashtirishga, sifat jihatidan yaxshilashga xizmat qiladi. Zamonaviy raqamli texnologiyalari dunyo bo'ylab ta'lim muassasalarida yangi ta'lim vositalari orqali ta'limni yanada jadal rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Raqamlashtirish ta'limda o'rganilgan bilimlarni almashish uchun imkon yaratib, insonlarga yanada ko'proq malumotlar ulashish imkonini beradi. Bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarimiz muvaffaqiyatli va samarali pedagogik faoliyat olib borishlarida raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi, nafaqat ko'nikmalar balki, axborot-texnologiyalardan foydalangan holda yangicha ta'lim vositalarini yaratishi kerak. Chunki, maktabga qadam qo'yayotgan bola ham alifbe bilan birgalikda informatika fani bilan ham tanishishni boshlaydi. Bu degani, jajji bolajonlarimiz axborot texnologiyalaridan foydalashni, raqamli texnologiyalar orqali yangicha o'quv vositalarini

yaratishni, yangi bilimlarni o'zlashtirishni, ulashishni, qayta ishlashni o'rganish va shakllantirib boradilar. Bu darslar orqali o'quvchilarimiz ijtimoiy tarmoqlardan unumli foydalanishni, yaratuvchanlik, ijodkorlik qobiliyatlarining shakllanishiga olib keladi. Ta'limda raqqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilargagina emas, balki o'qituvchilarimizga ham bir qancha yengilliklar yaratib beradi. Pedagog olimlarimizning ta'kidlashicha, o'quvchilar bilimni yaxshi o'zlashtirishlarida og'zaki tushuntirish orqali bilimning 5% ini eslab qoladi, o'qish orqali esa 10%ini eslab qoladi, rasm, video, ko'rgazmali qurollarni ko'rish orqali 20% ini eslab qolar ekan. Agar o'quvchilarga bilim o'rgatish jarayonida turli didaktik o'yinlar orqali ta'lim jarayoni amalga oshirilsa, 75% ini o'zlashtirish imkonini beradi, o'quv mashg'ulotlari o'quvchilar bilan birgalikda olib borilsa 90%igacha o'zlashtirish mumkin bo'ladi. Shu sababli ham dars jarayonlarida multimedia vositalari, o'yin texnologiyalari va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanib, raqqamli texnologiyalar asosida tashkil qilish yanada samarali hisoblanadi. Bu jarayonni amalga oshiruvchi bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy tayyorgarli yaxshi bo'lishi va aynan raqqamli texnologiyalardan foydalana olish ko'nikmalari yaxshi shakllangan bo'lishi kerak.

A.M.Karavayeva ta'kidlaganidek, axborot va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish nafaqat o'quvchilarning rivojlanishini qo'llab-quvvatlabgina qolmay, balki ularning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini, o'qishdagi o'zaro ta'sirini ham oshiradi. Shunday qilib, talabalarning malakasini oshirish omili sifatida u quyidagi muhim afzalliklar bilan tavsiflanadi:

- 1) o'quv jarayoni mazmunining usullari, texnologiyalarini takomillashtirish;
- 2) har bir o'quvchiga individual yondashish orqali ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish;
- 3) o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ta'lim jarayonida o'zaro munosabatlarning yangi shakllarini, shu jumladan masofaviy ta'limni tashkil etish va takomillashtirish;
- 4) o'qituvchi tomonidan ham, ta'lim muassasasi ma'muriyati tomonidan ham o'quv jarayonini boshqarish vositalarini takomillashtirish;
- 5) o'quvchilar shaxsini har tomonlama rivojlantirish va faollik darajasini oshirishga ko'maklashish;
- 6) talabalarning mustaqil ishi va o'z-o'zini tayyorlash darajasini sezilarli darajada oshirish;
- 7) talabalarning ilmiy-tadqiqot va qidiruv faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish;
- 8) ilgari o'rganilgan materialni takrorlash va mustahkamlash imkoniyati;
- 9) biznes yoki rolli o'yin shaklida, shu jumladan masofaviy formatda turli xil o'quv vaziyatlarini yaratish;
- 10) o'quv ma'lumotlarini izlash va tanlash va uni amaliy qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish;
- 11) talabalar bilimining oraliq yoki yakuniy nazorati natijasida obektiv baho olish, masalan, elektron test orqali;
- 12) Virtual laboratoriyalar, simulyatorlar va boshqalar orqali turli jarayonlarni modellashtirish imkoniyati;
- 13) "o'qituvchi – talaba", "o'qituvchi – o'quvchining ota-onasi" o'rtasida o'z vaqtida doimiy aloqani tashkil etish;
- 14) muayyan fan sohasida ham, darsdan tashqari mashg'ulotlarda ham o'quvchilarning ijodiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish va takomillashtirish, masalan, mahorat darslarini tomosha qilish orqali sevimli mashg'ulotlarini shakllantirish;
- 15) Virtual ko'rgazmalar, muzeylar va boshqalarga tashrif buyurish orqali o'quvchilarning estetik madaniyatini oshirish;
- 16) turli axborot manbalaridan (elektron kutubxonalar, ilmiy maqolalar, darsliklar va boshqalar) ta'lim maqsadlarida foydalanish imkoniyati.

Xulosa. Bugungi kunda ta'lim beruvchi shaxsning kasbiy sifatlariga nisbatan talablar oshib bormoqda. Haqiqatdan ham o'rgatuvchi shaxs doimo o'qish, izlanishda bo'lishi kerak. Ayniqsa, kasbiy sifatlarini puxta o'zlashtirishi kerak. Shu bilan birga bugungi ta'lim tizimida samarali faoliyatni amalga oshirish va bilimli, mustaqil fikrlay oladigan, dunyo bilan yuzlasha oladigan, raqqabatbardosh o'quvchilarni tarbiyalashda zamonaviy ta'lim vositalaridan ham keng foydalana olishi lozim. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy ijodkorligini yanada oshirishda

160 raqamli texnologiyalardan foydalanishga o'rgatilsa ta'lim jarayoni ham yuksak natijalarga erisha oladi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarda o'zini-o'zi rivojlantirishi, ijodiy rivojlanishi uchun zamin yaratadi. Raqamli texnologiyalardan foydalanishning orqali ham o'quvchilarning rivojlanishi ham o'qituvchilarning rivojlanishiga erishiladi.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi "Ta'lim to'g'risi"da O'RQ-367-son Qonuni.

2. Quchqorova N.M. "Pedagogik kasbiy kompetentligi va kreativlik" -Bookmany print-2022.

3. Ibragimova F.X. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy ijodkorligini rivjlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning shart-sharoitlari. Respublika ilmiy-amaliy anjuman, 161-164 b, 2023-yil 2-iyun

4. Samatova M.K. Raqamli ta'limda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida ta'lim jarayonini baholashni takomillashtirish. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya, 393-399 b, 2023-yil 25-oktabr

www.ziynet.uz

www.ede.uz

www.fayllar.uz